DOI 10.5281/ZENODO.7975013

Qurbonov Boboxo‘ja Nizomovich
Buxoro tuman kasb –hunar maktabi biologiya fani o‘qituvchisi

TUPROQLAR MONITORINGI VA ULARNING UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY ASOSLARI (Buxoro viloyati Jondor tumani tuproqlarining xossa-xususiyatlari misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxora viloyati Jondor tumani tuproqlarining unumdorligini oshirishni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, tuproqning xossasi va xususiyatlari ilmiy farazlar va jadvallar asosida asoslab berildi.
Kalit so‘zlar: Tuproq, Qishloq xo‘jaligi, Oziq-ovqat, Paxtachilik, G‘allachilik, Sholichilik ,Urug‘chilik, Klaster.

Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog’i qishloq xo‘jaligining hissasiga to‘gri keladi. Sohada 4 millionga yaqin aholi ish bilan band va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chet elga sotishdan tushgan tushumlar O‘zbekiston umumiy eksport daromadlarining 25 foizigacha tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘plab qishloqlar va kichik shaharlarning iqtisodiy o‘zagi hisoblanadi, zero u joylarda qishloq xo‘jaligidan tashqari boshqa muqobil daromad manbaalari mavjud emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyada belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bundan maqsad mamlakatimiz aholisini sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash shunday ekan Buxoro viloyati Jondor tumani ham Respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha salmoqli o‘rinlarda turadi. Jondor tumanida o‘zlashtirilmagan cho‘l zonasida yerlar ko‘pligi mavjud yerlarning meliorativ holatlarini yaxshilash qishloq xo‘jaligidan yuqori hosil olish uchun imkoniyat yaratadi. Quyida Jondor tumani haqida qisqacha ma’lumotlarni havola etamiz.

Jondor tumani 1935 yil 17 yanvarda tashkil topgan maydoni 517195 gektarni tashkil etadi, shundan ekin yerlari 24182 gektarni egallaydi. Foydalanilmaydigan yerlar esa 70710 gektar chegara uzunligi 575 km shundan Romitan tumani bilan 171 km, Peshku 127 km, Qorako‘l 208 km, Buxoro 54 km tumanlari bilan chegaradosh aholisi -181,3 ming kishi Yirik sanoat korxonalar 1 ta “Yakkatut Paxtachilik, G‘allachilik, Sholichilik va urug‘chilik klasteri. Tuman iqtisodiyoti issiqxona, Sanoatni qayta ishlash, parrandachilik klasteri,

https://wordlyknowledge.uz

chorvachilik, tekstil, to‘qimachilik sohalariga ixtisoslashgan. Fermer xo‘jaliklari soni 848 ta Paxtachilik 16880 tonna, G‘allachilik 59825 tonna don ishlab chiqarilgan. Tumanda haydalma yerlar 23 977,21 ga, issiqxonalarga 22,10 ga, ko‘p yillik daraxtzorlarga 2175,14 ga, bo‘z yerlar 1543,03 ga, yaylovlar esa 305830,62 ga maydonni egallaydi. Jondor tumanida 14 ta xo‘jalik mavjud bo‘lib

Jondor tumani tuproqlarining xossalari

T/R	Xo‘jaliklar nomi	Mexanik tarkibi						Jami
		qumli	qumloq	yengil	O‘rta	Og‘ir	loyli	
1	Sepatta	505,2	157,7	551,8	509,6	104,2	38,2	1866,7
2	Navoiy		46	168,3	874,2	234,7		1323,2
3	Mirzayon		33,6	867,7	616,8	415,8		1933,8
4	Dalmun	40,4	246,6	358,2	1298,6	41,5		1985,3
5	Oxshix		35,5	366,2	1243,3	428,8		2073,8
6	O‘rmon xo‘jaligi			13,3	8,6			21,9
7	Oxunboboyev	38,5		395,3	1252			1685,8
8	Somonchuq	57,6	167,3	332,8	909	119,5		1587
9	Romish		91,1	494,7	1983,9	243	30,6	2843,4
10	Qaroli	364,4	1281,2	749	1053,4	190,6		3638,6
11	Lolo	24	369,1	248,8	1194	382,8	40,9	2259,6
12	Po‘loti		12,3	359,7	1117,1	132,2	123	1744,3
13	Aleli	80	41,6	897,3	628,1	186,1		1833,1
14	Novrabod	129,5	1000,4	1012	1085,8	80,7		3308,4
	Tuman bo‘yicha	1239,6	3482,3	6815,1	13774,4	2559,9	232,7	28105

tuproqlari mexanik tarkibiga ko‘ra qumli, qumloq, yengil, o‘rta, og’ir, loyli bo‘lib hisoblanadi. Sho‘rlanish darajasiga ko‘ra kuchsiz, o‘rtacha, kuchli sho‘rlangan yerlar bo‘lib hisoblanadi. Tuproqlarining tosh aralashganligiga ko‘ra toshsiz, kuchsiz, o‘rtacha turlariga bo‘linadi. Shuningdek suvli yemirilish kuzatilmagan, tuproqlari zichlashmagan gipssiz bo‘lib hisoblanadi.Tuproqlarida gumusning miqdori 1-1,1-2 foizgacha uchraydi.

TT/R	Xo‘jaliklar nomi	Sho‘rlanish darajasi				Jami sho‘rlangan
		Sho‘rlanmagan	kuchsiz	O‘rtacha	kuchli	
1	Sepatta	742,6	728,4	291,1	104,6	1124,1
2	Navoiy	375,5	335,9	422,9	188,9	947,7

https://wordlyknowledge.uz

3	Mirzayon	487,6	980,5	122,9	342,8	1446,2
4	Dalmun	163,7	614,6	626,1	580,9	1821,6
5	Oxshix	185,5	1332,7	524	31,6	1888,3
6	O‘rmon xo‘jaligi	13,3			8,6	8,6
7	Oxunboboyev	591,4	654,5	229,8	210,1	1094,4
8	Somonchuq	148,4	728,2	582,3	128,1	1438,6
9	Romish	857,7	712,5	578,5	694,7	1985,7
10	Qaroli	551,9	1575,5	1169,7	341,5	3086,7
11	Lolo	992,1	744,8	522,7		1267,5
12	Po‘loti	45	920,9	547,8	230,6	1699,3
13	Aleli	674,6	469,3	222	467,2	1158,5
14	Novrabod	374,7	689,2	699,7	1544,8	2933,7
	Tuman bo‘yicha	**62**	**10487**	**6539,5**	**4874,4**	**21901**

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki Jondor tumanida Tuproq qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining birdan-bir vositasi har bir tumanning bitmas tuganmas tabiiy boyligi hamda kishilik jamiyati uchun zaruriy oziq mahsulotlari va turli xom ashyolar yetishtiriladigan asosiy va yagona manbai bo‘lib kelgan.

Sug‘oriladigan qumli-cho‘l tuproqlardagi gumus, asosiy oziqa elementlari va karbonat miqdori

Kesmalar №	**CHuqurlik, sm**	**Tuproq vazniga nisbatan % da**				**C:N**	**Harakatchan shakllari, mg/kg**		**SO_2 karbonat, %**
		gumus	azot	fosfor	kaliy		fosfor	kaliy	
DB-120	0-21	0,487	0,033	0,094	1,634	8,54	14,5	272,0	7,83
	21-35	0,351	0,028	0,072	1,482	7,26	6,3	215,0	8,44
	35-75	0,250	0,024	0,056	1,116	6,03	4,9	172,0	8,31
	75-140	0,175	0,016	0,051	0,755	6,33	4,0	136,0	6,61
PK-140	0-24	0,524	0,038	0,090	1,815	7,98	8,6	298,0	6,85
	24-38	0,461	0,033	0,081	1,656	8,09	7,3	254,0	6,09
	38-69	0,340	0,030	0,061	1,471	6,56	5,3	214,0	6,14
	69-136	0,164	0,015	0,054	0,825	6,33	4,9	148,0	7,41
ZR-119	0-25	0,750	0,053	0,088	1,728	8,19	10,0	281,0	5,28
	25-53	0,510	0,037	0,072	1,446	7,98	7,1	214,0	5,45
	53-77	0,330	0,026	0,058	1,041	7,35	5,4	163,0	6,63
	77-144	0,134	0,010	0,043	0,732	7,76	4,8	118,0	7,06

Sug‘oriladigan qumli-cho‘l tuproqlardagi gumus, asosiy oziqa elementlari va karbonat miqdori

https://wordlyknowledge.uz

Kesmalar №	Chuqurlik, sm	Tuproq vazniga nisbatan % da				C:N	Harakatchan shakllari, mg/kg		SO_2 karbonat, %
		gumus	azot	fosfor	kaliy		fosfor	kaliy	
MJ-130	0-19	0,410	0,031	0,068	1,567	7,67	10,8	254	6,76
	19-36	0,320	0,023	0,066	1,415	8,07	8,6	180	7,23
	36-78	0,236	0,019	0,052	1,097	7,20	5,1	172	7,00
	78-144	0,180	0,014	0,037	0,745	7,46	4	125	8,04
IN-139	0-21	0,478	0,044	0,074	1,328	6,30	15	231	8,97
	21-34	0,405	0,030	0,070	1,204	7,83	13,2	193	7,31
	34-81	0,387	0,026	0,058	0,836	8,63	8,6	174	6,68
	81-153	0,243	0,018	0,046	0,694	7,83	5,2	118	6,17

Respublikamizning 60 foizdan ko‘pini cho‘l zonalari tashkil qiladi.Shu jumladan Jondor tumanida ham katta hudud cho‘llardan iborat bo‘lib hisoblanadi. Aholi sonining yildan yilga oshib borishi oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda albatta, bunday talabni qondirish uchun qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha yerlar ochish va cho‘l zonalaridan foydalanish aholining talablarini qondirish imkonining birdan bir yo‘li shu bo‘lib hisoblanadi. Cho‘l zonasini o‘zlashtirish qo‘shimcha yerlar ochish imkoniyati yaratildi. Buxoroda 77,8 ming gektar tashlandiq yer maydonini o‘zlashtirishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 21-22 yanvar kunlari viloyatimizga tashrifi davomida hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida bergan topshiriqlaridan kelib chiqib, jumladan, qishloq xo‘jaligida, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarida ham tub burilishlarni, izchil islohotlarni amalga oshirish belgilandi. Xususan, viloyatda foydalanishdan chiqqan 77,8 ming gektar va cho‘l yerlarini 2021-2022 yillarda foydalanishga kiritish, Buxoro cho‘l yerlarini o‘zlashtirish ilmiy-amaliy markazini tashkil qilish bo‘yicha tegishli qaror loyihasi ishlab chiqish tavsiya qilingan. Bunda yer ishlarining manzilli dasturi hamda yer o‘zlashtirish tadbirlarini bozor tamoyillari asosida, xususiy sektorni jalb qilgan holda amalga oshirish belgilangan. Ayni paytda viloyatda 77,8 ming gektar yerni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan 300 millard so‘mni 2021 yilda respublika byudjetidan Suv xo‘jaligi vazirligi tizimiga ajratiladigan mablag‘ning elektr energiyasi xarajatlarini tejalgan qismi hisobidan moliyalashtirish talabi qo‘yilgan. Respublika Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda viloyat hokimligi hamkorligida “Trigon Internationale INC” xorijiy kompaniyasi tomonidan 2021-2025 yillar mobaynida 300 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritish hisobiga viloyatda 50 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish orqali cho‘l yerlarini o‘zlashtirib, texnik kannabis o‘simligini sanoat maqsadida yetishtirish, qayta

https://wordlyknowledge.uz

ishlash bo‘yicha yirik investitsion loyihani amalga oshirishga kirishilmoqda.Shuningdek, 2021 yilda viloyatda 26 ming 520 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni, shu jumladan, 17 ming 440 gektar maydonda tomchilatib sug‘orishning zamonaviy texnologiyasini joriy qilish sa’y-harakati boshlangan. Buning samarasi o‘laroq, hududda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish hisobidan 1,5 milliard kub-metr hajmdagi “obi hayot”ni tejash va viloyatda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilishni tezlashtirish uchun 21 yilga mo‘ljallangan subsidiya mablag‘larining 50 foizini oldindan ajratish maqsadga muvofiqligi qayd qilingan. Viloyat hokimligi respublika Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Bog‘dorchilik va va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda 2021-2022 yillarda suv tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llagan holda 5 ming gektar yerda intensive bog‘ va 4,7 ming gektar yer maydonida uzumzor bog‘ barpo etish talabi qo‘yilgan. Birgina qishloq xo‘jaligida bu kabi agrotexnik tadbirlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Mavjud imkoniyat, bilim, kuch hamda vositalar ishga solinmoqda. Masalan, ayni kunda bu borada viloyat miqyosida jami 50 ming 666 gektar yer maydonini o‘zlashtirish ishlari boshlangan bo‘lsa, bu agrotexnik jarayon 61 ta loyihani o‘z ichiga oladi. Aynan shu kecha-kunduzda, ya’ni 8 fevral holatida foydalanishga kiritilgan yer maydoni 6 ming 738 gektarga yetkazilgan bo‘lib, bu umumiy rejaning 13 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Xuddi shunday, 38 ming 340 gektar yerni tekislash va tuproq ishlarini bajarish tadbirlari ham 6 ming 595 gektarga uddalangan. Buxoro viloyatida cho‘l massivida o‘zlashtirilayotgan yer maydonlarida irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish bilan birga 180 dona tik sug‘orish qudug‘ini o‘rnatish ko‘zda tutilgan bo‘lib, hozirda uning 10 tasi qurilgan va 27 kilometrdan iborat sug‘orish tarmog‘ini barpo etish, 6 dona nasos agregati o‘rnatish, 21 kilometrga elektr tarmog‘ini tortib, muayyan infratuzilmani, faoliyat uchun yetarli qulaylikni yaratish nazarda tutilgan. Yirik loyihalar qatorida qishloq xo‘jaligi rivojlantirilayotgan Jondor tumanida 10 ming 500, Kogon tumanida 6 ming, Buxoro tumanida 5 ming 5, Qorako‘l tumanida 4 ming 800, Romitan tumanida 4 ming 388 gektar, Olot va G‘ijduvon tumanlarida 4 ming gektardan iborat oborotdan chiqarilgan yer maydonlarini foydalanishgan. kiritish bo‘yicha amaliy sa’y-harakat boshlangan. Bu jarayonda Jondor tumanining Moxonko‘l, Varaxsho, Buxoro tumanining Qumsulton, Kunjiqal’a, Yangiobod, Shergiron, O‘rtacho‘l, Vobkent tumanining To‘dako‘l, Yangi Hayot arig‘i, Kogon tumanining Siyozpoyon, Mustaqillik, Beklar, Qorako‘l tumanining Qulonchi, Sho‘robod, Sayyot, Jig‘achi, Mallaishayx, Quvvacha, Chandirobod, Olot tumanining Oq oltin, Amudaryo, Bahoriston, Guliston, Sharq yulduzi, Qirlishon, Peshko‘ tumanining Bog‘i Muso, Varaxsho, Buxoro-3, Jongeldi, Navoiy-2, Romitan tumanining Yangiobod, Bog‘iturkon, Sho‘rcha, Qoqishtuvon, Shofirkon tumanining Denov, Jo‘yrabod, Iskogare, Vardonze,

https://wordlyknowledge.uz

G‘ijduvon tumanining Mehnatobod, Qutchi, Ko‘kcha kabi massivlarida tanlab olingan yer maydonlarida amaliy ishga kirishildi. Loyiha egalari zimmasida esa mas’uliyatli, shu bilan birga xayrli vazifalar turibdi.

O‘zlashtiriladigan yerlar birinchi navbatda kam ta’minlangan, muqim daromadga ega bo‘lmagan oilalar, pandemiya sharoitida ishsiz qolgan hamyurtlarimizga berilish rejalashtirildi.

Ular shuning orqasidan ozmi-ko‘pmi daromadga ega bo‘ladi, ro‘zg‘orini tebratadi. Qolaversa, bozorlarimizda bu erda yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga mo‘l-ko‘lchilik, arzonchilik bo‘ladi, oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanadi. Misol uchun, Olot tumanida ana shunday loyihalardan birining egasi sifatida “Parvoz Xumo Ravnaq Trans” MCHJ jamoasi Amudaryo, Bahoriston, Guliston va Sharq yulduzi massivlaridan jami 2 ming gektardan ziyod yer maydonini o‘zlashtirib, foydalanishga kiritishi lozim. Shu kecha-kunduzda MCHJ tomonidan 20 gektar yer obod qilinib, tuproq ishlari bajarilib, 170 gektar yer maydoni tekislangan. Bundan tashqari, agrotexnik tadbirlarga mas’ul jamoa tomonidan hududda 7 kilometr uzunlikda sug‘orish, 3 kilometr kollektor, qolaversa, 107 kilometr uzunlikdagi elektr tarmog‘ini qurish va 4 ta nuqtaga nasos agregatini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Murakkab iqlim sharoiti, tuproq ball bonitetitining pastligi, sho‘rlanish darajasining yuqoriligiga qaramasdan, viloyatda keyingi yillarda ekin yerlarini tekislash, shudgor qilish, sho‘r yuvish ishlarining me’yori va sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining samaradorligi oshdi. Jumladan, o‘rtacha va kuchli darajada sho‘rlangan maydonlarning umumiy sug‘oriladigan yerlarga nisbatan ulushi 2018 yilda 24,1 foiz yoki 66,1 ming gektar, 2019 yilda 23,6 foiz yoki 65 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda 23,2 foizga yoki 63,8 ming gektarga tushdi.

Joriy yilda viloyatdagi ekin maydonlarini sug‘orishga jami 4,2 mlrd kub metrdan oshiq suv sarflandi. Viloyatning asosiy suv manbasi hisoblangan Amudaryodan nasos stansiyalari orqali 3,6 mlrd kub metr, Zarafshon daryosidan 458,8 mln kub metr, yerosti quduqlari orqali 58,9 mln kub metr, kollektorlar orqali esa 78,5 kub metr suv olindi. Bunda “Amu-Buxoro-I” va “Amu-Buxoro-II”, “Jondor-I”, “Quyimozor”, “Jayxun”, “Qorovulbozor”, “Poykent”, “Xarxur”, “Sayyod” kabi 36 ta nasos stansiyasi va ulardagi 721 ta nasos agregati kuchidan unumli foydalanildi. Joriy yilda viloyat melioratsiya va irrigatsiya tarmoqlarida ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari uchun 24 ta loyihaga muvofiq 60,6 mlrd so‘m mablag‘ moliyalashtirilgan. Xususan, melioratsiya tarmoqlarini modernizatsiyalash bo‘yicha 16 ta loyiha doirasida 102,8 milliard so‘m ajratilgan. Ayni paytda “Yomonjar” kanalining 9 kilometrga yaqin qismi to‘liq beton qilingan bo‘lsa, Markaziy kollektorning Romitan hamda Jondor tumanlari markazini birlashtirgan 35 kilometr qismi kapital ta’mirdan chiqarilmoqda. “O‘ng qirg‘oq” kollektor tizimida ham katta ko‘lamdagi ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, soha mutaxassislari o‘rganishlariga ko‘ra, viloyatda umumiy kollektorning 1,7 kilometr qismi rekonstruksiyaga muhtoj.

https://wordlyknowledge.uz

Tumanlararo o‘tgan kanallar o‘zanlarini betonlashtirish, hududlardagi suv taqsimlash inshootlari, drenaj quduqlarini ta’mirlash kerak.

Sohani modernizatsiyalash orqali kelgusi yilda viloyatda tomchilatib sug‘oriladigan ekin maydonlarini 13 ming gektarga yetkazish, soha moddiy-texnik bazasini ish unumdorligi yuqori bo‘lgan xorij texnologiyasi, chunonchi ekskovatorlar bilan to‘ldirish, nafaqat, tumanlar hamda chekka massivlar, balki viloyat markazining irrigatsiya va meliorativ holatini yaxshilash, zax suvlarni qochirish va shaharni obod va ko‘kalamzor maskanga aylantirish zarurati ham tug’ildi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Tuproqshunoslik va dehqonchilik A Ramazonov. S. Buriyev Toshkent 2018
2. Tuproqshunoslik P.Uzoqov Sh.Hojiqulov I.Boboxo‘jayev Toshkent 2010
3.Tuproqshunoslik va o‘simlikshunoslik asoslari (ma’ruza matni) prof G.M Satipov dots Z.R Tajiyev Urganch 2017
4.Meliorasiya va yerlarni rekultivasiyalash Xamidov. M. X Urazkediyev.A.B Botirov. Sh.Ch Toshkent 2012
5. Dehqonchilik va meliorasiya fanidan laboratoriya va amaliy mashg’ulotlar Sanaqulov.A Abduraximov.M Raximov.A Samarqand 2020

Internet tarmog’i :

1.Ziyonet.uz
2.My.gov.uz
3.Kutuvxona—Library.academiy.uz

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz